



## O'ZBEK TILI TA'LIMIDA 6-SINF O'QUVCHILARNING LINGVOMADANIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Jumamuratova Sevara Saparbaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi o'zbek tili ixtisosligi 1-kurs doktoranti

Tel: +99893-164-22-00

E-mail:[sjumamatova@list.ru](mailto:sjumamatova@list.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek til ta'limida 6-7-sinf o'quvchilarining lingvomadaniy kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-didaktik asoslari va uning tilshunoslikdagi o'rni bo'yicha fikrlari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, kompetensiya, tilshunoslik, lingvomadaniy metod, metodika.

**Abstract.** This article focuses on the scientific and didactic foundations of the formation of linguistic and cultural competences of 6th-7th grade students in Uzbek language education and their opinions on its place in linguistics.

**Keywords:** Linguistic culture, competence, linguistics, linguistic cultural method, methodology.

Hozirgi kunda xalqlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar yanada mustahkamlashgan. Shunday qilib, aloqalar tilning madaniyat vat til bilan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Madaniyat va tilni tadqiq etuvchi olimlar XX asrdayoq bu ikki sohaning yangi fan sifatida shakllanishini anglagan edi. Ushbu soha ular tomonidan fanga lingvomadaniyatshunoslik deya kiritildi. Ya'ni til va madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi zamonaviy tilshunoslikdagi yangi fan. XX asrda ushbu soha uch muammo: til, madaniyat va inson shaxsiyati orqali tadbiq etila boshlandi. Maqsad til va madaniyat haqidagi bilimlarni inson ongida faollashtirish edi. "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir".<sup>1</sup> Shu boisdan biz tadqiqotimizda 6-sinflarning o'zbek tili darsligidagi mavzulardagi topshiriqlar va matnlarda o'quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyaga oid jihatlarini yanada rivojlantirishni maqsad qildiq. Jumaladan, 6-sinf o'zbek tili darsligida "Samarqandning yuragi" mavzusidagi 1-topshiriqdadagi matn yuzasidan madaniyatga oid so'zlarni ya'ni

<sup>1</sup> Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmatischeskiy I lingvokulturologicheskiy aspekti. -M.: Shkola "Yaziki russkoy kulturi", 1196- S.222.




Samarqand, registon, madrasa, “Buyuk ipak yo‘li” kabi so‘zlarni o‘quvchilarga izohli lug‘atdan ma’nolarini topib borgan holda tushuntiramiz va tushunganliklarini aniqlash uchun har xil grafik organayzerlardan foydalangan holda mustahkamlaymiz. Bu kabi so‘zlarni o‘quvchilarning tushunishi va tanish va notanish hollarda qo‘llashi juda muhim. Chunki yuqoridagi so‘zlar kundalik hayotimizda juda ko‘p qo‘llaniladi.

Quyidagi topshiriqni ham o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi:

## RASMLAR ORASIDAGI BOG‘LIQLIK



Ushbu topshiriqda o‘quvchilar madaniyatimizga oid rasmlarni bir-biriga bog‘lagan holda matn yoki gaplar tuzishi kerak. Agar o‘quvchilar orasida madaniyatimizga oid so‘zlarga izoh talab etilsa, o‘qituvchi izohli lug‘atdan foydalangan holda tushuntirib berishi lozim. Quyidagi mashq orqali o‘quvchilar tabiat, jamiyat, san’at, tarix va ijtimoiy va madaniy borliq sohalardagi bog‘liqliklarni anglab olishlari mumkin. Ushbu sohalarni anglash orqali o‘quvchilar o‘z-o‘zini anglashi xususiyatini o‘rganishi, lisoniy manzaraning mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashini o’rganadi. Bu ham o‘quvchilarning lingvomadaniyatini rivojlantirishda muhim unsur hisoblanadi.



Ushbu krossvord 6-sinf darsligining 36-betida berilgan. Bu krossvord ham o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyasini shakllantirishda katta hissa qo‘shadi.

Lingvokulturologiya – madaniyat va tilning qo‘llanish jarayoni maqomidagi o‘zaro ta’sirlashuvlarni o‘rganuvchi fandir. Lingvokulturologik tadqiqotlar sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa shunga o‘xhash sohalar o‘rtasida olib boriladi. XIX asrda V.Gumboldtning til va tafakkur munosabatlarini o‘rganishda millat madaniyatiga asosiy e’tibor berilishi lozimligi haqidagi mulohazalari XX asrning 90-yillarida qator tilshunoslardan yangi fan hozirgi zamon tilshunosligida o‘ta tez sur’atlarda rivojlanib, umumiyligi tilshunoslikdan alohida o‘rin egalladi. Shunday ekan, o‘quvchilarda ham lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, madaniyat qanchalik chuqur va tafsilotlari bilan o‘rganilsa, uning inson fikrashi bilan bog‘liq ekanligi yakdil seziladi. Shunday boisdan, o‘quvchilar ham ko‘z o‘ngida aks etgan voqeahodisalarni madaniyati orqali ongiga singdirishga harakat qiladi. Ma’lumki, insonlar ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yashaydilar, qaysidir milliy tilda gaplashadilar va muayyan milliy ma’naviyat va madaniyatga ega. Milliy ma’naviyat, uni ro‘yobga chiqishida muhim o‘rin tutadigan til madaniyati va nutq ma’naviyatining o‘ziga xos jihatlari insonlarning lisoniy kognitiv faoliyatida o‘z aksini topadi. Masalan, insonlar yo‘lda ketayotganida biror narsadan cho‘chishi mumkin. Shunday hollarda nemis millatiga mansub insonlar “Mein Got”, ruslar “Боже мой！”, inglizlarda “Oh my got!” kabi jumlalarni ifodalashi mumkin. Shuning uchun, o‘quvchilarda ham shu kabi lingvomadaniy jumlalarni shakllantirish lozim.



Biz tadqiqotimiz davomida 6-sinf o‘zbek tili darsligida madaniyatimizni yaqqol ko‘rsatadigan mavzularning ko‘pligining guvohi bo‘ldik. Jumladan, “Samarqand”, “Oltin qo‘llar”, “Milliy liboslar”, “Xalq durdonalari”, “Zargarlik”, “Milliy taomlar”, “Minoralar”, “Alisher Navoiy”, “Algoritm” kabi mavzularda madaniy jihatlar atroflicha ochib berilgan. Ushbu mavzulardagi lingvomadaniy so‘zlarni topib ularni lug‘atini shakllantirish va raqamli texnologiyalar orqali o‘rgatish o‘quvchilarning mavzularni yaxshi o‘zlashtirishiga ustun bo‘ladi. Ushbu darslikdagi matnlarning bir qanchasi ham lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan.

Lingvokulturologiyaning metodlari til va madaniyatning o‘zaro aloqasini tahlil qilishda foydalanadigan tahliliy amallar va tadbirlar yig‘indisi sifatida ko‘rsatiladi. Lingvokulturologiya fanning integrativ, ya’ni kulturologiya, tilshunoslik, etnolingvistika va madaniy antropologiya tadqiqotlari natijalarini o‘zida mujassamlashtirgan sohasi bo‘lgani uchun ham unda “til va madaniyat” markazi atrofida to‘plangan qator bilish metodlari va yo’nalishlari qo‘llaniladi. Lingvokulturologik tahlil jarayonlarida kulturologiya va tilshunoslik metodlaridan tanlab foydalanadi.<sup>2</sup> Shu boisdan, o‘quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyalarini shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. osa qilib shuni aytish lozimki, lingvokulturologiya va uning o‘rganilishi yuzasidan Ba’zi qarashlar esa, bir-biriga qarama-qarshi ekanligini ham guvohi bo‘ldik. Shu g‘oyalarni umumlashtirgan holda o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli resurslardan foydalansak va shu kabi chora-tadbirlarini ko‘rsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticscheskiy I lingvokulturologicheskiy aspekti. -M.: Shkola “Yaziki russkoy kulturi”, 1196-S.222.
2. Shoira Usmonova. Lingvokulturologiya. Toshkent-2019. 37-38-betlar.

<sup>2</sup> Shoira Usmonova. Lingvokulturologiya. Toshkent-2019. 37-38-betlar.